



Tashkent State University of Economics

JOURNAL OF INTERNATIONAL FINANCE AND ACCOUNTING

ISSN
2181-1016

KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKI ICHKI AUDITIDA STRESS-TEST O‘TKAZISH MASALALARI

Umarov Zafar Absamatovich

TDIU Bank hisobi va auditi kafedrasasi mudiri, i.f.d., professor

Toshkent, O‘zbekiston

e-mail: z.umarov@tsue.uz

ORCID: 0000-0003-4389-7025

ISSUES OF STRESS TESTING IN THE INTERNAL AUDIT OF CREDIT PORTFOLIOS AND CREDIT RISK

Zafar Absamatovich Umarov

DSc in Economics, Professor,

Head of the Department of Bank Accounting and Audit,

Tashkent State University of Economics,

Tashkent, Uzbekistan.

ORCID: 0000-0003-4389-7025

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-test o‘tkazishning nazariy-uslubiy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotda kredit risklarini boshqarish tizimida stress-testlashning o‘rni va ahamiyati, uning ichki audit jarayonlariga integratsiyalash mexanizmlari tahlil qilingan. Xalqaro amaliyot, xususan Bazel qo‘mitasi tamoyillari va bank nazorati talablaridan kelib chiqib, kredit portfeli va kredit riskini stress-testdan o‘tkazishning asosiy bosqichlari, ob‘ektlari hamda risk omillari tizimlashtirilgan. Tadqiqot davomida stsenariy va sezuvchanlik tahlili usullaridan foydalangan holda kredit portfelining normal, salbiy va ekstremal sharoitlardagi barqarorligi baholangan. Olingan natijalar kichik biznes kreditlari segmenti eng yuqori risk darajasiga ega ekanligini, korporativ va chakana kreditlar esa iqtisodiy sharoitlarning yomonlashuviga turlicha darajada sezgirligini ko‘rsatdi. Shuningdek, stress-test natijalaridan ichki auditda foydalanish kredit portfelidagi zaif segmentlarni aniqlash, ehtimoliy yo‘qotishlarni baholash hamda boshqaruv

qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berildi. Tadqiqot yakunida kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-testlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: kredit portfeli, kredit riski, ichki audit, stress-test, stsenariy tahlili, sezuvchanlik tahlili, muammoli kreditlar, kredit riskini boshqarish, risk-menejment, kredit portfeli monitoringi, prudensial nazorat, Bazel tamoyillari, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, audit samaradorligi.

Abstract: This article examines the theoretical, methodological, and practical aspects of conducting stress testing within the internal audit of credit portfolios and credit risk in commercial banks. The study analyzes the role and significance of stress testing in the credit risk management framework, as well as the mechanisms for its integration into internal audit processes. Drawing upon international best practices, particularly the principles of the Basel Committee and banking supervisory requirements, the research systematizes the key stages, objects, and risk factors involved

in stress testing credit portfolios and credit risk. Using scenario analysis and sensitivity analysis methods, the resilience of credit portfolios under normal, adverse, and extreme conditions is assessed. The findings reveal that the small business lending segment exhibits the highest level of credit risk, while corporate and retail loan portfolios demonstrate varying degrees of sensitivity to deteriorating economic conditions. Furthermore, the study substantiates that the application of stress-testing results within internal audit enhances the identification of vulnerable segments in credit portfolios, facilitates the assessment of potential losses, and improves the quality of managerial decision-making. Based on the research findings, a set of scientific and practical recommendations is proposed to improve the stress-testing framework within the internal audit of credit portfolios and credit risk.

Keywords: *credit portfolio, credit risk, internal audit, stress testing, scenario analysis, sensitivity analysis, non-performing loans (NPLs), credit risk management, risk management, credit portfolio monitoring, prudential supervision, Basel principles, commercial banks, financial stability, audit effectiveness.*

Kirish.

Jahon moliya bozorlarida yuz berayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, geosiyosiy xatarlar, inflyatsion bosimlarning kuchayishi hamda moliyaviy inqirozlar bank tizimi barqarorligini ta'minlash masalasini dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy daromad manbai hisoblanganligi sababli kredit portfeli sifati va kredit risklarini samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining ortishi

banklarning likvidligi, rentabelligi va kapital yetarliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois kredit risklarini baholash, monitoring qilish va oldindan prognozlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Xalqaro bank amaliyotida kredit risklarini boshqarish tizimining muhim tarkibiy elementi sifatida stress-testlash usullaridan keng foydalanilmoqda. Stress-testlar bank kredit portfelining turli noqulay makroiqtisodiy va moliyaviy sharoitlarga nisbatan barqarorligini baholash, ehtimoliy yo'qotishlarni aniqlash hamda risklarni kamaytirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Ayniqsa, global moliyaviy inqirozlardan keyin stress-testlash jarayonlari bank nazorati va ichki risk-menejment tizimlarining ajralmas qismiga aylandi. Bunda kredit portfelining turli segmentlari bo'yicha risklarning konsentratsiyasi, kreditlarning qaytmaslik ehtimoli hamda kapitalga ta'siri kompleks ravishda tahlil qilinadi.

Bank faoliyatida ichki audit tizimi korporativ boshqaruvning muhim instituti sifatida risklarni boshqarish, ichki nazorat va boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash vazifasini bajaradi. Kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-test natijalaridan foydalanish audit xulosalarining ishonchliligini oshirish, mavjud va potensial risklarni chuqur aniqlash hamda bankning risklarga bardoshlilik darajasini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, amaldagi ichki audit amaliyotida stress-testlash metodologiyalarining yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi, kredit risklari bo'yicha stsenariylarning cheklanganligi hamda natijalarni audit baholash mezonlari bilan uyg'unlashtirish masalalari mavjud bo'lib qolmoqda.

Mazkur holatlar kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-test o'tkazishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, uning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish va audit samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish zaruratini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-test o'tkazish masalalarini tadqiq etish, stress-test natijalaridan audit jarayonlarida foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Material va metod.

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-testlash amaliyotini takomillashtirish masalalari o'rganildi. Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini kredit risklarini boshqarish, ichki audit va stress-testlash bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro moliyaviy institutlar tavsiyalari, bank nazorati organlarining me'yoriy hujjatlari hamda tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Xususan, kredit risklarini baholash va stress-testlash bo'yicha xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan tavsiyalar, jumladan, Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar, shuningdek, ichki auditning riskga asoslangan yondashuvlari tadqiqotning metodologik negizi sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot davomida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, kredit portfelining sifati va kredit risklarini baholash bo'yicha mavjud yondashuvlarni o'rganishda ilmiy abstraksionalash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Kredit portfeli ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalarini aniqlashda qiyosiy va

dinamik tahlil usullari qo'llanildi. Kredit riskining bank moliyaviy holatiga ta'sirini baholashda iqtisodiy-statistik tahlil hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida stress-testlash usuli qo'llanildi. Bunda kredit portfeliga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar bo'yicha turli stsenariylar shakllantirildi. Jumladan, foiz stavkalarining oshishi, valyuta kursining keskin o'zgarishi, qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatining pasayishi hamda muammoli kreditlar ulushining ortishi kabi omillar kredit portfeli barqarorligiga ta'siri nuqtayi nazaridan baholandi. Stress-testlash jarayonida bazaviy, mo'tadil salbiy va keskin salbiy stsenariylar asosida kredit portfeli sifati, kutilayotgan kredit yo'qotishlari va kapital yetarliligiga ta'sir darajasi tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda ichki auditning riskga yo'naltirilgan yondashuvi asosida kredit riski auditi va stress-test natijalari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Bunda stress-test natijalarining audit rejalashtirish, audit dalillarini shakllantirish va audit xulosalarini asoslashdagi ahamiyati baholandi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda mantiqiy tahlil, ekspert baholash hamda sintez usullaridan foydalanildi.


Tadqiqotning axborot bazasini tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, kredit portfeli to'g'risidagi ma'lumotlar, ichki audit hisobotlari, bank nazorati organlarining statistik ma'lumotlari hamda kredit risklarini boshqarish va stress-testlash bo'yicha ilmiy manbalar tashkil etdi. Mazkur metodlar majmuasi kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-testlash amaliyotining mavjud holatini baholash hamda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy

asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Natijalar:

Tijorat banking moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda kredit risklarini samarali boshqarish nuqtai nazaridan stress-testlarni o'tkazish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bank faoliyatini

baholashda, ички аудит ўтказиш жараёнида asosiy amaliy va strategik vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan, bank kredit portfeli makroiqtisodiy o'zgarishlarga sezgir bo'lgani uchun, ularni stress-testdan o'tkazish bank faoliyatidagi moliyaviy risklarni oldindan baholashda muhim ahamiyatga egadir.



1-rasm. Xalqaro valyuta fondi tomonidan stress-test o'tkazish yo'nalishlari[3]

Rasmdan ko'rinib turibdiki tijorat banklari ham kredit riski va kredit portfelini stress-testdan o'tkazish zarur.

Xalqaro valyuta fondi stress-test masalasida juda ko'p tadqiqotlar o'tkazib kelayapti, oxirgi o'tkazgan tadqiqotida «Stress-test - bu turli taxminiy voqea yoki stsenariylar sharoitida portfel, muassasa yoki butun moliyaviy tizimning zaiflik darajasini baholaydigan usuldir»[7] deb e'tirof etgan. Bunda asosan to'rtta yo'nalish bo'yicha stress-test o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblangan.

«Stress-test (stress testing) bu riskni aniqlash usuli bo'lib, u bankni risk ostiga qo'yadigan muvofiqlashtirilmagan pozitsiyaning qiymatini aniqlashdan, shuningdek tashqi omil – valyuta kursi, foiz stavkasi va boshqa o'zgarishlarning ta'sirchan qiymatini aniqlashdan iborat»[5]. Ushbu qiymatlarning kombinatsiyasi, agar voqealar asosiy taxminlarga muvofiq

rivojlansa, bank qancha yo'qotish yoki daromad olishi haqida fikr beradi.

Stress-test asosan bank risklarini baholash va boshqarish jarayonida keng foydalanadi. Shuning uchun stress-testni o'tkazish masalasida olib borgan tadqiqotlarda kredit riski bilan bog'liq masalalarga a'lohida e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin.

Ushbu masalada Bazel qo'mitasi tomonidan olib borilgan ishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

2000-yilda Bazel qo'mitasi «Kredit riskini boshqarish bo'yicha printsiplar» (Principles for the management of credit risk, October 2000) ni qabul qilgan bo'lib, u dunyo bo'ylab bank nazorat organlarini kredit riskini samarali boshqarish amaliyotini joriy qilish[6] bo'yicha tavsiyalar berilgan edi.

Mazkur prinsiplardan foydalanish bank nazorat organlari uchun banklarning

kredit riskini boshqarish tizimini baholashda asosiy metodik yo'nalish sifatida xizmat qiladi. Baholash jarayoni quyidagi to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha olib boriladi:

- kredit risklarini samarali boshqarish uchun barqaror va qulay muhitni yaratish;
- asoslangan, shaffof hamda ishonchli kreditlash amaliyotini tashkil etish;
- kredit portfelini boshqarish, tahlil qilish va doimiy monitoring tizimini yo'lga qo'yish;
- kredit xavflarini nazorat qilishga xizmat qiluvchi ichki nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish va amalda qo'llash.

2023-yil iyul oyida Bazal qo'mitasi kredit risklari bo'yicha kuzatuv axborotnomasini (Newsletter on credit risk issues, July 2023) e'lon qilib, banklarning kredit riskini modellashtirish amaliyotini baholash va iqtisodiy muhit hamda moliyaviy sharoitlardagi o'zgarishlar bilan bog'liq risklarni kuzatib borishda davom etishini[4] ma'lum qildi.

Shu munosabat bilan Bazal qo'mitasi mazkur printsiplarni qayta ko'rib chiqishni maqsad qilib oldi, sababi so'nggi 25-yil ichida global moliya bozorlaridagi o'zgarishlar, kredit risklari bilan bog'liq yangi tendentsiyalar hamda nazorat va regulyativ muhitdagi yangiliklar nuqtai nazaridan mazkur printsiplar hali ham dolzarbmi-yo'qmi, degan savolga javob topish edi.

Tahlil natijasida kredit riski printsiplari o'z dolzarbligini saqlab qolgani tasdiqlandi. Biroq, ayrim qismlar eskirgan, boshqa hujjatlar bilan almashtirilgan yoki Bazal me'yorlari va Qo'mita tomonidan qabul qilingan so'nggi ko'rsatmalarga to'liq mos kelmasligi aniqlandi.

Shu bois, Bazal qo'mitasi ushbu printsiplarni Bazal me'yorlar to'plami va

Qo'mita tomonidan qabul qilingan so'nggi yo'riqnomalar bilan muvofiqlashtirish maqsadida texnik xususiyatga ega, cheklangan miqdordagi o'zgartirishlarni kiritdi. Ushbu yangilanishlar printsiplarning mazmunini o'zgartirish yoki yangi mavzularni qamrab olishni ko'zda tutmagan.

2000-yilda qabul qilingan «Kredit riskini boshqarish bo'yicha printsiplar» soni 17 ta bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda qabul qilingan «Kredit riskini boshqarish bo'yicha printsiplar» soni 16 tani tashkil qilmoqda.

Kredit riskini boshqarish bo'yicha tamoyillar tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash va kreditlashtirish samaradorligini oshirishda muhim hisoblanadi.

Ichki auditorlar ham kredit riski va kredit portfeli auditida stress-testdan foydalangan holda o'z xulosalarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bazal qo'mitasi «bank nazoratchilari bozor va kredit risklarini kuzatish uchun stress-testlardan foydalanishni talab qiladi»[2]. Buni biz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan nazoratga oid talablarida ham ko'rsak bo'ladi.

Jumladan, «bankda bank uchun ahamiyatli bo'lgan tavakkalchiliklarni aniqlash va boshqarish, stress-testdan o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan siyosatining, shuningdek bank uchun ahamiyatli tavakkalchiliklar va kapital bo'yicha hisobot tizimining mavjudligi»ni[1] bank va banklar guruhining ichki nazoratiga hamda risklarni boshqarish tizimiga doir talablar kiritilgan.

Banklar stress-test natijalarini umumiy cheklovlarni belgilash va nazorat qilish jarayonida inobatga olishlari kerak. Bunday stress-testlar iqtisodiy tsikllar, foiz stavkalari va boshqa bozor o'zgarishlari, hamda likvidlik sharoitlarini hisobga olishi lozim.

Tijorat banking barqarorligini ta'minlash va kredit riskini samarali boshqarish maqsadida stress-testni o'tkazish muhim amaliy va strategik vosita hisoblanadi. Ichki auditorlar ham kredit riski va kredit portfeli auditida stress-testdan foydalangan holda o'z xulosalarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi[8].

Ichki auditorlar tomonidan kredit portfeli va unga bog'liq risklarni stress-testdan o'tkazish jarayoni bankning strategik maqsadlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. Mazkur jarayon, birinchi navbatda, bank faoliyatida katta moliyaviy yo'qotish xavfini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sohalar, mijozlar va yo'nalishlarni aniqlash, ular bilan bog'liq xatarlarni chuqur o'rganish va baholashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, risklarni samarali boshqarish, kutilishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarning oldini olish yoki ularni

bartaraf etish bo'yicha amaliy choralarni belgilash ushbu tartibning ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Kredit portfeli va kredit riskini stress-testdan o'tkazishning asosiy maqsadi kreditlashtirish operatsiyalarning barqarorligini, daromadligini ta'minlash uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarning borligi, ta'siri va ularni oldini olish, kamaytirish yo'llari haqida xabardorlikni olish sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

Bank kredit portfeli va kredit riskini stress-testdan o'tkazish bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi lozim. Buni quyidagi rasmda ko'rish mumkin.



2-rasm. Bank kredit portfeli va kredit riskini stress-testdan o'tkazish bosqichlari[3]

Stress-test stsenariylari va ular asosida shakllantirilgan taxminlar doirasida bank, asosiy xavflarga duch kelishi mumkin bo'lgan har bir yo'nalish yoki ob'ekt uchun

natijalarni baholash imkonini beruvchi aniq metodikani ishlab chiqishi va tasdiqlashi lozim. Jumladan, kredit riskini stress testlash modellari stress yo'qotishlarni hisoblashga

asoslangan. Bunda quyidagi asosiy ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

muddati o'tgan (muammoli) kreditlarning qo'shimcha hajmi;

kreditlarni sifat kategoriyalari bo'yicha qayta tasniflashda yaratilgan qo'shimcha zahiralar miqdori;

kredit riskini qoplash uchun qo'shimcha garov summasi;

kredit portfeli sifatining yomonlashuvi natijasida yo'qotilgan rejali foyda miqdori.

Ichki auditor kreditlashtirish operatsiyalarini stress-testdan o'tkazish vaqtida stress-test ob'ektlari va risk omillarini aniq belgilashlari lozim. Bunda Risk menejmenti departamenti tomonidan foydalanilayotgan uslubdan, uni tahlil qilgandan so'ng foydalanish maqsabga muvofiq. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan stressli hodisalarni tavsiflovchi tahdid va risk omillarining manbalarini baholaydi.

1-jadval

Kreditlashtirish operatsiyalarida stress-test ob'ektlari va risk omillari[3]

| Ta'sirli risk | Kredit riski mavjud yo'nalishlar | Sinov ob'ekti | Tahdid manbai |
|---------------|---|--|---|
| Kredit riski | Yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlashtirish | Yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar portfeli | Qarz oluvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlashishi |
| | | Yaratilgan zaxiralar portfeli | Kreditlashning sekinlashuvi |
| | | Ta'minot portfeli | Qo'shimcha zaxiralar yaratish |
| | Kontragent banklar foydasiga mablag'larni joylashtirish | Kontregent banklarning hisobvaraqlaridagi mablag'lar | Garov qiymatini kamayishi (ko'chmas-mulk) |
| | | Berilgan banklararo kreditlar | Kontregent banklarning litsenziyasini bekor qilinishi |
| | | | Kontragentlar moliyaviy ahvolining yomonlashuvi |

Stress-test uchun tanlanadigan ob'ektlar va ular bilan bog'liq asosiy risk omillari ro'yxati bankning eng muhim xavflari hamda kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini hisobga olgan holda Risklarni boshqarish departamenti yoki maxsus ekspertlar guruhi tomonidan tuziladi. Ushbu ro'yxat har chorakda bankning vakolatli kollegial boshqaruv organi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Kredit va unga tenglashtirilgan bank operatsiyalarini amalga oshirishi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli holatlar bo'yicha zaxira yaratish, ta'minotni baholash, banklararo munosabatlar kabi sohalar bankning kredit riskika duch keluvchi asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Stress-test jarayonida sinov ob'ektlari sifatida kredit riskini tahlil va monitoring qilishda bir nechta asosiy yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Bular jumlasiga yuridik va

jismoniy shaxslar bo'yicha kredit portfeli, ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun shakllantirilgan zaxiralar hajmi, kredit ta'minotining tarkibi, hamkor banklar hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda banklararo kreditlar kiradi. Ushbu komponentlar stress-test doirasida risklarga nisbatan tahlil va baholashning muhim ob'ektlari sifatida qaraladi.

Tahdid manbalari – ichki yoki tashqi omillar bo'lib, ular kredit risklarining ro'yobga chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, qarz oluvchining moliyaviy qiyinchiligi, bozordagi ko'chmas mulk qiymatining tushishi yoki bank litsenziyasining bekor qilinishi.

Munozara

Ichki auditorlar kredit riski va kredit portfeli auditida bir yoki bir necha ob'ektlariga bir vaqtda yoki alohida stress-test stsenariylarining stsenariy tahlilini yoki sezuvchanlik tahlili turlarini qo'llash maqsadga muvofiq.

Stsenariy tahlili (scenario analysis) - bu risklarni baholash yondashuvi bo'lib, u bir yoki bir nechta bog'liq stressli holatlar doirasida turli risk omillarining bank faoliyatiga bo'lgan ta'sirini modellashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali inqirozli vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar va ularning bank operatsiyalariga ta'siri kompleks baholanadi.

2-jadval

Kredit riski omillari va sezuvchanlik tahlilining indikativ parametrlari[3]

| Risk omillari | Me'yor | Kichkina stress | Stress | Katta stress | Inqiroz |
|---|--------|-----------------|--------|--------------|---------|
| Muammoli kreditlar ulushining o'tgan davrga nisbatan mutloq oshishi, foizda | 1% | 2% | 3% | 5% | 10% |
| Muammoli kreditlarning zaxiralar hisobidan qoplanishi, foizda | 100% | 125% | 150% | 225% | 300% |

Sezuvchanlik tahlili (sensitivity analysis) – faqat bir risk omili natijasida zarar va oqibatlarni taxmin qilish imkonini beradi yoki bank faoliyatiga taxdidlarni aniqlaydi.

Bank, stress-test stsenariylari va ularga asoslangan stsenariy taxminlarini inobatga olgan holda, muhim risklarga duchor bo'lishi mumkin bo'lgan har bir stress-test ob'ekti uchun natijalarni baholashga

mo'ljallangan aniq metodologiyani ishlab chiqadi va belgilaydi.

Stress test tahlili ehtimoliy uchta ssenariylarda ishlab chiqildi - normal, salbiy va ekstremal. Ayni paytda vaziyatni kuzatib, bank ko'rsatkichlari 1-ssenariyga muvofiq rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin, ammo bank mijozlarining faoliyati qiyin darajada tiklanishi 2- va 3-ssenariylardagi holatlarni yuzaga kelish ehtimoli mavjud.

3-jadval

Kreditlarning qaytishi (recovered loans) ehtimoliy normal, salbiy va ekstremal ssenariyda stress test tahlili[3]

| Kredit riski | 1-Ssenariy | 2-Ssenariy | 3-Ssenariy |
|--------------------|------------|------------|------------|
| Yuridik shaxslar | | | |
| Sanoat | 78,65% | 75,63% | 71,61% |
| Qishloq xo'jaligi | 83,10% | 80,08% | 76,04% |
| Transport va aloqa | 79,62% | 76,60% | 72,58% |
| Qurilish | 78,28% | 75,27% | 71,25% |
| Savdo | 78,32% | 75,31% | 71,28% |
| Xizmat | 85,80% | 82,79% | 78,78% |
| Komunal xizmatlar | 59,80% | 56,80% | 52,80% |
| Boshqalar | 80,14% | 77,12% | 73,07% |
| Jismoniy shaxslar | | | |
| Ipoteka | 81,30% | 78,30% | 74,3% |
| Avtokredit | 87,40% | 84,40% | 80,4% |
| Mikroqarz | 87,20% | 84,20% | 80,2% |
| Istemol krediti | 67,80% | 84,80% | 80,8% |
| Boshqalar | 57,40% | 54,40% | 50,40% |

O'tkazilgan stress-test natijalari kredit portfelining turli ssenariylardagi qaytarilish darajasini ko'rsatib berdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, kreditlarning qaytarilish ko'rsatkichlari normal sharoitdan salbiy va ekstremal ssenariylarga o'tishda muntazam ravishda pasayib boradi. Bu esa banklarning kredit risklari iqtisodiy sharoit yomonlashgan taqdirda sezilarli darajada ortishini ilmiy asosda namoyon etadi.

Yuridik shaxslar kesimida eng yuqori barqarorlik xizmat ko'rsatish sohasida kuzatilgan bo'lsa (85,8% → 78,78%), eng past qaytarilish darajasi komunal xizmatlar segmentiga to'g'ri kelmoqda (59,8% → 52,8%). Sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish va savdo tarmoqlarida esa kredit qaytarilishi o'rtacha 7–8 foiz bandga pasayib borishi ularning iqtisodiy sharoit o'zgarishlariga sezgirligini ko'rsatmoqda.

Jismoniy shaxslar bo'yicha kreditlar tahlilida avtokreditlar va mikroqarzlilar eng barqaror segment sifatida (87,4% → 80,2%)

ajralib chiqmoqda. Ipoteka kreditlari ham garov ta'minoti sababli nisbatan yuqori qaytarilish darajasini saqlab qolmoqda (81,3% → 74,3%). Shu bilan birga, «boshqa kreditlar» kategoriyasi past qaytarilish darajasi bilan yuqori xavfli guruh sifatida baholanadi (57,4% → 50,4%).

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kredit portfelini shakllantirish va risklarni boshqarishda yuqori xavfli segmentlar (komunal xizmatlar, ta'minotsiz iste'mol kreditlari va boshqa kreditlar) bo'yicha qo'shimcha ehtiyot choralarini ishlab chiqish talab etiladi. Xususan, garov ta'minotini mustahkamlash, qarz oluvchilarning moliyaviy faoliyatini yanada puxta kuzatib borish va kredit risklarini turli yo'nalishlarga taqsimlash (diversifikatsiya qilish) tijorat banklari barqarorligini ta'minlashda muhim omillar sifatida e'tirof etiladi.

Kredit portfelini boshqarishda asosiy ko'rsatkichlar: muammoli kreditlar (NPL)

ulushi, to'lovlarni to'lash muddati kechikish darajasi, ehtimoliy yo'qotishlar uchun ajratmalar va qaytarish ko'rsatkichlari muntazam kuzatib borilishi lozim. Bu

ko'rsatkichlar haqida bank boshqaruvi va manfaatdor tomonlarga aniq hisobotlar taqdim etish orqali shaffoflik va oqilona boshqaruv ta'minlanadi.

4-jadval

Muammoli kreditlar (NPL) ulushi va ehtimoliy yo'qotishlar uchun ajratmalar ehtimoliy normal, salbiy va ekstremal ssenariyda stress test tahlili[3]

| Maksimal 12 oy davomida | 1-Ssenariy | 2-Ssenariy | 3-Ssenariy |
|----------------------------------|------------|------------|------------|
| Kredit riski - korporativ biznes | | | |
| Muammoli kreditlar ulushi | 3,17% | 4,56% | 7,2% |
| Yo'qotishlar uchun zaxira, % | 2,47% | 2,83% | 3,70% |
| Kredit riski - kichik biznes | | | |
| Muammoli kreditlar ulushi | 13,6% | 15,3% | 19,2% |
| Yo'qotishlar uchun zaxira, % | 8,0% | 8,7% | 10,3% |
| Maksimal 12 oy davomida | | | |
| Kredit riski - chakana biznes | | | |
| Muammoli kreditlar ulushi | 7,5% | 8,8% | 12,0% |
| Yo'qotishlar uchun zaxira | 2,3% | 2,7% | 3,8% |

O'tkazilgan stress-test tahlili natijalari kredit portfeli sifatining turli iqtisodiy sharoitlarda qanday o'zgarishini aniqlash imkonini berdi. Natijalar uch asosiy segment - korporativ biznes, kichik biznes va chakana biznes kreditlari bo'yicha muammoli kreditlar (NPL) ulushi hamda yo'qotishlar uchun ajratmalar dinamikasini ochib berdi.

Korporativ biznes segmentida muammoli kreditlar ulushi normal ssenariyda 3,17% ni tashkil etgan bo'lsa, salbiy ssenariyda 4,56% va ekstremal sharoitda 7,2% gacha o'sishi kuzatildi. Shu bilan birga, yo'qotishlar uchun ajratmalar 2,47% dan 3,70% gacha ortdi. Ushbu natijalar korporativ kreditlarning yuqori diversifikatsiyaga ega ekanligini va moliyaviy intizomning nisbatan yuqoriligini tasdiqlasa-da, keskin salbiy sharoitlarda ularning ham muammoli qarzlarning ulushi ikki baravarga yaqin ko'payishini ko'rsatmoqda. Bu esa korporativ kreditlar segmentida ham

tizimiy riskni inkor etib bo'lmazligini anglatadi.

Kichik biznes kreditlari eng xavfli segment sifatida ajralib turadi. Stress-test natijalari muammoli kreditlar ulushi normal sharoitdagi 13,6% darajadan salbiy sharoitda 15,3% gacha, ekstremal sharoitda esa 19,2% gacha o'sishini ko'rsatdi. Shunga mos ravishda yo'qotishlar uchun ajratmalar ham 8,0% dan 10,3% gacha ortgan. Bu kichik biznes kreditlarining iqtisodiy o'zgarishlarga yuqori sezgiriligini va risklarni qoplash uchun katta hajmdagi rezervlarni talab qilishini ko'rsatadi. Shu sababli kichik biznes kreditlari banklar uchun eng yuqori ehtimoli yo'qotish manbasi sifatida qaralishi mumkin.

Chakana kreditlar segmentida muammoli kreditlar ulushi normal sharoitda 7,5% ni tashkil etgan bo'lsa, salbiy ssenariyda 8,8% va ekstremal sharoitda 12% ga yetdi. Yo'qotishlar uchun ajratmalar ham mos ravishda 2,3% → 2,7% → 3,8% ko'rsatkichlarda shakllandi. Ushbu segment

o'rtada darajadagi riskli guruh sifatida qaraladi. Ammo chakana kreditlarning ulushi umumiy portfel tarkibida sezilarli bo'lgani uchun ularning pasayishi tizimiy xavfga sabab bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Kredit portfeli segmentlari o'rtasida eng yuqori risk kichik biznes kreditlariga to'g'ri kelmoqda, chunki ularning muammoli kreditlar ulushi ekstremal sharoitda deyarli beshdan bir qismini tashkil qilmoqda.

Korporativ kreditlar nisbatan barqaror ko'rinishiga qaramay, keskin iqtisodiy yomonlashuv sharoitida ularning muammoli kreditlari ulushi ikki baravarga yaqin oshmoqda.

Chakana kreditlar esa o'rtada xavfli segment sifatida qaralsa-da, umumiy kredit portfelidagi ulushi sababli tizimiy risk manbai bo'lishi mumkin.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda yuqori xavfli segmentlar - ayniqsa kichik biznes kreditlari - bo'yicha qo'shimcha prudensial choralarni ishlab chiqishi zarur. Bunday choralar qatoriga: kreditlashtirish mezonlarini yanada qat'iylashtirish, garov siyosatini kuchaytirish, qarz oluvchilarning moliyaviy ahvolini tez-tez monitoring qilish, muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini rivojlantirish kabilari kiradi.

Shuningdek, kredit portfelidagi risklarni taqsimlash, ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli zaxiralarni shakllantirish hamda bank kapitalining yetarililigini ta'minlash — kredit xavfini kamaytirishda muhim ilmiy asosga ega omillar hisoblanadi.

Markaziy bank tomonidan regulyativ talablarning vaqti vaqti bilan yangilanib borishi, shuning uchun tijorat banklari kapital monandligi, risklarni baholash va zaxiralar to'plash kabi masalalarda amaldagi

qonunchilikka rioya etishlari shart. Bu komplaens siyosati bankning obro'yini saqlab qolish va moliyaviy jazolarning oldini olish imkonini beradi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, kredit portfelining xavfsizligi va barqarorligini oshirishda risklarni diversifikatsiya qilish, ularni aniq baholash, doimiy monitoring olib borish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda stress-testlarni o'tkazish amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda moliyaviy muhitning tez o'zgarib borayotganini hisobga olgan holda, tijorat banklari moslashuvchan va proaktiv boshqaruv modellarini joriy qilishlari shart.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-testlash usullaridan foydalanish tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kredit risklarini oldindan aniqlash hamda ichki audit samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Maqolada kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-test o'tkazishning nazariy-uslubiy jihatlari o'rganilib, kredit risklarini baholashda xalqaro amaliyot va Bazeli qo'mitasi tavsiyalarining ahamiyati asoslab berildi.

O'tkazilgan tahlillar natijasida kredit portfelining turli segmentlari iqtisodiy sharoitlarning yomonlashuviga turlicha darajada sezgir ekanligi aniqlandi. Stress-test natijalariga ko'ra, kichik biznes kreditlari eng yuqori riskli segment sifatida namoyon bo'lib, ekstremal ssenariyda muammoli kreditlar ulushi 19,2 foizgacha yetishi mumkinligi aniqlandi. Korporativ kreditlar nisbatan barqaror bo'lsa-da, salbiy iqtisodiy sharoitlarda ular bo'yicha ham muammoli kreditlar ulushi sezilarli darajada ortishi kuzatildi. Chakana kreditlar segmentida esa risk darajasi o'rtacha

bo'lishiga qaramasdan, ularning kredit portfelidagi ulushi yuqori bo'lganligi sababli tizimiy xavf manbai sifatida e'tirof etildi.

Tadqiqot davomida kredit portfeli va kredit riskini stress-testdan o'tkazishning bosqichma-bosqich modeli ishlab chiqildi hamda ichki auditorlar tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan asosiy stress-test ob'ektlari va risk omillari tizimlashtirildi. Natijalar ichki audit jarayonida stress-testlashni qo'llash kredit portfelidagi zaif segmentlarni aniqlash, potensial yo'qotishlarni baholash hamda audit xulosalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: tijorat banklarida kredit portfeli va kredit riski ichki auditining majburiy elementi sifatida stress-testlash amaliyotini joriy etish; ichki audit xizmatlari tomonidan kredit risklari bo'yicha bazaviy, salbiy va ekstremal ssenariylarga asoslangan stress-test metodologiyalarini ishlab chiqish; kichik biznes va yuqori riskli kredit segmentlari bo'yicha alohida stress-test modellarini qo'llash; stress-test natijalarini kredit portfeli monitoringi, kapital yetarliligini baholash hamda risklarni boshqarish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlariga integratsiyalash; kredit portfeli sifati yomonlashishi ehtimoli yuqori bo'lgan segmentlar bo'yicha qo'shimcha zaxiralar shakllantirish va prudensial choralarni kuchaytirish; ichki auditorlarning stress-testlash bo'yicha malakasini oshirish hamda ushbu jarayonlarni raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish.

Umuman olganda, kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-testlash tizimini takomillashtirish banklarning risklarga bardoshliligini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda kredit faoliyati samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, stress-test natijalaridan ichki auditda keng foydalanish kredit risklarini boshqarish sifatini yangi bosqichga olib chiqib, tijorat banklarida korporativ boshqaruv va risk-menejment tizimlarining samaradorligini oshirishga imkon beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 2019 yil 5 noyabr
2. Marco Sorge Stress-testing financial systems: an overview of current methodologies. BIS Working Papers, December 2004
<https://www.bis.org/publ/work165.pdf>
3. Muallif ishlanmasi
4. Newsletter on credit risk issues <https://www.bis.org/>
5. «O'zsanoatqurilishbank» ATB tizimida stress-test o'tkazish siyosati
6. Principles for the Management of Credit Risk www.bis.org
7. Stress Testing at the IMF www.imf.org
8. Umarov Z.A. Tijorat banklari kreditlashtirish operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va ichki auditi metodologiyasini takomillashtirish. DSc avtoreferati 2025-yil, 82-bet